

MILLIY IQTISODIYOTNING TEXNOLOGIK VA INNOVATSION O‘SHINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**Bekmuradov Oktam Tashpulatovich***Innovatsion Texnologiyalar Universiteti o‘qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotning texnologik va innovatsion o‘shish nazarini va metodologik asoslari tahlil qilinadi. Maqolada innovatsion rivojlanishning iqtisodiy samaradorlikka ta‘siri, texnologik yangiliklarni joriy etish mexanizmlari hamda milliy iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashdagi roli ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va ilm-fan hamda texnologiyalarni samarali qo‘llash bo‘yicha strategik yo‘nalishlar tavsiya etiladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy iqtisodiyot, texnologik rivojlanish, innovatsion o‘shish, iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik, strategik rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье анализируются теоретические и методологические основы технологического и инновационного роста национальной экономики. Рассматривается влияние инновационного развития на экономическую эффективность, механизмы внедрения технологических инноваций и его роль в обеспечении стабильности национальной экономики. Также предлагаются стратегические направления повышения конкурентоспособности национальной экономики и эффективного использования науки и техники.*

Ключевые слова: *национальная экономика, технологическое развитие, инновационный рост, экономическая эффективность, конкурентоспособность, стратегическое развитие.*

Abstract: *This article analyzes the theoretical and methodological foundations of technological and innovative growth of the national economy. The article examines the impact of innovative development on economic efficiency, mechanisms for introducing technological innovations, and its role in ensuring national economic stability. The article also recommends strategic directions for increasing the competitiveness of the national economy and the effective use of science and technology.*

Keywords: *national economy, technological development, innovative growth, economic efficiency, competitiveness, strategic development.*

KIRISH

So‘nggi yillarda milliy iqtisodiyotning texnologik va innovatsion rivojlanishi jahon iqtisodiyotidagi raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror o‘shishni ta‘minlashda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Milliy iqtisodiyotning texnologik rivojlanishi yangi ishlab chiqarish uskunalari, raqamli texnologiyalar va ilmiy-innovatsion loyihalarni tatbiq etish orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, texnologik va innovatsion o‘shish milliy iqtisodiyotning

raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-dekabrda PQ-443-sonli qarorida "2025/2026 o'quv yilidan boshlab har payshanba kuni rasmiy ravishda jismoniy tarbiya va innovatsion bilimlarni rivojlantirishga qaratilgan darslar o'tkazilishi belgilansin" deb qayd etilgan bo'lib, bu qaror milliy iqtisodiyotning texnologik va innovatsion rivojlanishida kadrlar salohiyatini oshirishning muhim yo'nalishini ko'rsatadi [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-martdagi 77-sonli qarorida "Milliy innovatsion rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida ilm-fan, ta'lim va sanoatni birlashtiruvchi kompleks chora-tadbirlar ko'riladi" deb belgilangan. Ushbu qaror milliy iqtisodiyotning texnologik o'sishini tizimli ravishda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik hujjat sifatida ahamiyatlidir [2].

Texnologik va innovatsion rivojlanish jarayoni iqtisodiy samaradorlikni oshirish va milliy mahsulotlarning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Innovatsion faoliyat ilmiy tadqiqotlar, startap loyihalari, raqamli transformatsiya va ilg'or ishlab chiqarish uskunalarini tatbiq etish orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, milliy iqtisodiyotning texnologik va innovatsion rivojlanishini nazariy-metodologik jihatdan o'rganish iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, texnologik va innovatsion rivojlanishni baholash uchun patentlar soni, ilmiy maqolalar va startap loyihalarining samaradorligi kabi mezonlar qo'llaniladi. Bu mezonlar innovatsion faoliyatning real natijalarini ko'rsatadi va kelgusida iqtisodiy siyosatni shakllantirishda asos bo'ladi. Shu bois, milliy iqtisodiyotning texnologik va innovatsion o'sishini tahlil qilish va rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash bugungi kunda iqtisodiy tadqiqotlar uchun strategik ahamiyatga ega.

Raqamli iqtisodiyot - bu iqtisodiy faoliyatning zamonaviy shakli bo'lib, unda raqamli texnologiyalar, internet va elektron tizimlar markaziy o'rinda turadi. Hozirgi kunda, texnologiyalarning jadal rivojlanishi va internetning keng tarqalishi iqtisodiyotning barcha sohalarida inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. An'anaviy iqtisodiyotda ishlatiladigan ko'plab jarayonlar va usullar raqamli texnologiyalar yordamida avtomatlashtirilmoqda va optimallashtirilmoqda, bu esa o'z navbatida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, raqamli iqtisodiyotning asosiy afzalliklari - samaradorlik, tezlik, resurslarni tejash va innovatsiyalarni joriy etishdan iboratdir.

Raqamli iqtisodiyotning o'sib borishi bilan yangi ish o'rinlari yaratilib, eski ish o'rinlari esa transformatsiyalashadi. Startaplar va kichik bizneslar uchun yangi imkoniyatlar yaratilmoqda, chunki raqamli platformalar orqali biznesni boshqarish va reklama qilish ancha osonlashmoqda. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissi katta. Global miqyosda raqamli texnologiyalar va onlayn xizmatlarning ko'payishi yangi bozorlarni yaratishda va mavjud bozorlarni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Elektron hukumatga doir elementlarni tatbiq etish va raqamli iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash O'zbekistonning yaqin istiqboldagi taraqqiyot rejasidan mustahkam o'rin olgan. Bu, birinchi navbatda, elektron hujjat almashish ulushini yanada oshirish va davlat

xizmatlarining muayyan qismini Davlat xizmatlari markazlari orqali bosqichma-bosqich ravishda elektron shaklga o'tkazish vazifalariga tegishlidir. Telekommunikatsiya infratuzilmasi bu jarayonda muhim vazifani bajaradi.

Raqamlashtirish so'zi aslida yangi atama bo'lib, innovatsion boshqaruv va ish yuritish jarayoniga IT yechimlarning jalb etilishini, buning samarasi o'laroq esa internet buyunlardan tortib, elektron hukumatgacha tobo'lgan barcha tizimlarda axborot texnologiyalarini qo'llashni ko'zda tutadi.

Raqamli iqtisodiyot tushuncha nisbatan uzoq bo'lmagan vaqtda, 1995-yilda Massachusetts universiteti amerikalik olimi Nikotas Negroponte tomonidan aniqlab berilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o'tishda, Qanday o'zgarishlar ro'y berishi mumkinligini aytib o'tgan.

Raqamli iqtisodiyot bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishga asosiy, omil raqamlar ko'rinishidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborodlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasida analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiya qurilmalarini saqlash, mahsulotlarni yetkazib: berishida oldingi tizimdan samarali yechimlar tadbiiq qilishdir. Boshqacha aytganicha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish. elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudlanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir.

Texnologik raqamli muhit – bu yuridik va jismoniy shaxslar hamkorlikdagi faoliyat uchun butunlay yangi muloqotni yo'lga qo'yadigan «akvarium» hisoblanadi. Axborot texnologiyalari korxonalariga butunlay yangi, yanada jadal ish sur'atlarini o'zlashtirish hamda xizmat va mahsulotlar shaklini xilma-xillashtirishga imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, tadqiqotchilar qisqa saqlanadigan mahsulotlarning bozorga chiqarilishi haqida ham gapirishmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasi haqida gapiradigan bo'lsak, axborot texnologiyalari ko'plab kundalik vazifalarni hal qiladi, buning natijasida esa yirik ko'lamdagi amallar tezroq, arzonroq, qulayroq va o'rtadagi vositachilarsiz bajariladi.

Elektron savdo, internet-banking va boshqa shu kabi zamonaviy yo'nalishlar kundan kunga rivojlanib bormoqda. Natijada daromadni oshirish uchun aksar sohalarda avtomatik tarmoqli servislari (masalan, sifatli veb-sayt yoki mobil ilova kabi) biznesdagi vositachilar o'rnini egallamoqda.

Iqtisodchilarning fikriga ko'ra, ayni vaqtda bu kabi o'zgarishlar natijasida qo'shimcha qiymatni chiqarib olish amaliyotiga asoslangan iqtisodiyot hamkorlik va manfaatlarni baham ko'rish («sharing-economy») iqtisodiyotiga almashmoqda. Bu esa bozordagi raqobat o'z o'rnini o'zaro manfaatli kooperatsiyaga va hamkorlikka faol bo'shatishi, shu bilan birga, vertikal muloqotdan o'zaro teng munosabatlar va bir-birini to'ldiruvchi xizmatlarga o'tishiga umid uyg'otadi.

Ta'kidlanishicha, raqamli texnologiyalar iqtisodiyotga bog'liq 50 foizdan ortiq sohalarni keskin o'zgartirib yuboradi. Ushbu qarash axborot texnologiyalari va raqamli platformalar

biznes modellarni keskin o'zgartirib, ularning samaradorligini vositachilarni bartaraf etishi va jarayonlarni optimallashtirishga asoslangan.

Jahon banki hisob-kitoblari binoan, tezkor internet foydalanuvchilarining 10 foizga ko'payishi yillik YaIM ko'lamini 0,4 foizdan 1,4 foizgacha oshirishi mumkin ekan. 2010 yilda Boston Consulting Group kompaniyasi raqamlashtirish ko'lamini 20ta mamlakatdan iborat guruh uchun 2,3 trillion dollarga (4,1 foiz YaIM) baholagan. Agar bu tendensiya saqlanib qolsa, 10-15 yildan keyin bunday iqtisodiyotning jahon YaIMidagi ulushi 30-40 foizga yaqinlashadi.

Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda IT sohasida taxminan 1 foiz aholi mehnat qiladi, ushbu sektor ish o'rinlarini boshqalarga solishtirganda nisbatan qamroq yaratadi. Biroq IT yo'nalishining yuksalishi yangi texnologiyalarni o'zlashtirayotgan boshqa sohalarda ish o'rinlarining yaratilishiga turtki beradi (IT sohasida yaratilgan har 1ta yangi ish o'rni uchun yondosh sohalarda 4,9ta ish o'rni to'g'ri keladi). Raqamli iqtisodiyot tadbirkorlar va o'zi uchun ishlaydigan insonlarga yangi ufqlarni dadil ochib bermoqda.

Ko'pincha IT sohasining rivojiga qo'shilgan hissa iqtisodiyotning rivojlanishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, odamlar va biznes uchun yangi turdagi xizmatlarning paydo bo'lishi, elektron hukumat loyihalari doirasida xarajatlarining qisqarishiga zamin yaratadi.

Shu bilan bir vaqtda, axborot texnologiyalarini tatbiq etishdan hosil bo'lgan umumiy effekt kutilganidan samarasizroq bo'lib chiqadi va bir xil tartibda taqsimlanmaydi.

Raqamlashtirish – yangi iqtisodiy texnologiyalarning yo'ldoshi hisoblanadi

Axborot platformalarini birlashtirish natijasida paydo bo'lgan muloqot modellari yangi iqtisodiy texnologiyalarning (YaIT) paydo bo'lishiga turtki beradi.

YaIT – bu tashkiliy boshqaruv tizimlariga biror maqsadga xizmat qiladigan axborot (ma'lumotlar, g'oyalar va bilimlar) mahsulotlarini yaratish, ularni uzatish, saqlash va aks ettirish uchun yaxlit texnologik platformaga birlashuvchi va iqtisodiy agentlar muloqotiga sarflanadigan trakzaktsion xarajatlarni maksimal darajada kamaytiruvchi ma'lumotlarni qayta ishlashga doir har jihatdan yangi «sozlanuvchi» vositalar va metodlar yig'indisidir.

Raqamli texnologiyalar va xatarlar

Raqamli iqtisodiyotning eng faol drayveri – bu davlatdir. U raqamli iqtisodiyotning asosiy buyurtmachisi va iste'molchisidir. Masalan, Xitoy bu maqsadlar uchun 9 mlrd dollar atrofida mablag' sarflagan. Bozor kapitalizatsiyasi 210 mlrd dollardan ziyod bo'lgan Alibaba internet resursi hisoblanadi

Xulosa

Milliy iqtisodiyotning texnologik va innovatsion o'sishi – bu zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy omili hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyat nafaqat yangi texnologiyalarni yaratish va ishlab chiqarishga tatbiq etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ijtimoiy farovonlik, bandlik va ta'lim sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Milliy innovatsion tizimning rivojlanishi davlat siyosati, ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va xususiy sektorning birgalikdagi sa'y-harakatlari orqali amalga oshiriladi.

Texnologik o'rish va innovatsion rivojlanish milliy iqtisodiyotning strukturaviy o'zgarishlariga, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga va xizmatlar hamda raqamli mahsulotlar sektorini rivojlantirishga yordam beradi.

Shu bois, milliy iqtisodiyotning barqaror o'rish va raqobatbardoshligini ta'minlash uchun innovatsiyalarni rag'batlantirish, ilm-fan va texnologiyalarni integratsiyalashgan holda qo'llash, shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash strategik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PQ-443-sonli qaror. "Jismoniy tarbiya va innovatsion bilimlarni rivojlantirishni ta'minlash to'g'risida". Toshkent, 2024.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. 77-sonli qaror. "Milliy innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida". Toshkent, 2023.

3. Sh, Mavlonov Sh, and F. B. Jurayeva. "ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA MINTAQALAR IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH." Экономика и социум 10 (125) (2024): 234-238.

4. Aliqulov, Sh. "M. Yaxiyaxonova. Ta'lim samaradorligini oshirishda kreativ va zamonaviy metodlarning ahamiyati. Raqamli ta'lim muhitida fanlararo integratsiyani Qo'llashning ta'lim samaradorligiga ta'siri: xalqaro Tajribalar va rivojlanish istiqbollari." (2024).

5. Shukurullo Fayzullo o'g'li, Aliqulov. "TA'LIMDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH." PEDAGOGS 50.2 (2024): 51-55.